

**NO‘XAT EKININI YETISHTIRISHDA EKISH MEYORLARINI QO‘LLASH****Suvonova Go‘zal Asrorovna**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
[gsuvonova7@gmail.com](mailto:gsuvonova7@gmail.com)

**Jabborov Mehroj Akmal o‘g‘li**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
[mehroj95jabborov2022@gmail.com](mailto:mehroj95jabborov2022@gmail.com)

**Dilmurodov G‘ofurjon Shavkat o‘g‘li**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
[gofurjondv97@gmail.com](mailto:gofurjondv97@gmail.com)

**Eshmurodov Jonibek Xudayberdi o‘g‘li**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
[eshmurodovjonibek6@gmail.com](mailto:eshmurodovjonibek6@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

*Respublikamizda don ekinlari bilan birgalikda dukkakli - don ekinlarini ekish, ularning maydonlarini kengaytirish va hosildorligini oshirish shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ushbu maqolada Samarqand viloyatining sug‘oriladigan yerlarda yaratilgan no‘xatning “Umid” navi hosildorligiga ekish meyorlarining ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Dukkakli–don ekinlari, tuproq strukturasi, biologik azot, oqsil, chorva mollari oziqasi, unumdorlik, sug‘oriladigan maydonlar.*

**APPLICATION OF PLANTATION STANDARDS IN CHICKPEA CROP GROWING****ABSTRACT**

*One of the urgent issues of today in our republic, along with grain crops, is the sowing of leguminous crops, the expansion of their areas and the increase in yield. This article describes the impact of the planting rate on the yield of the chickpea variety "Umid" on irrigated lands of the Samarkand region.*

***Keywords.** Legumes-cereals, soil structure, biological nitrogen, protein, livestock feed, fertility, irrigated areas.*

## KIRISH.

Respublikamizda don ekinlari bilan birgalikda dukkakli - don ekinlarini ekish, ularning maydonlarini kengaytirish va hosildorligini oshirish shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Dukkakli – don ekinlarini keng miqyosda ekish, tuproq strukturasi yaxshilab, uning unumdorligini oshishi hamda tuproqda biologik azotni to'plashda ahamiyati kattadir [1,3].

Dukkakli - don ekinlari orasida yuqori miqdorda oqsil va sifatli moy beruvchi no'xat o'simligi alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda, yer yuzidagi rivojlangan mamlakatlarda chorva mollari oziqasida dukkakli ekinlardan - no'xat muhim o'rinni egallaydi [1,2,4].

Respublikamizning sug'oriladigan maydonlarida no'xat ekini boshqa dukkakli - don ekinlari singari tuproqning agrokimyoviy tarkibini va suv - fizikaviy xossalarini yaxshilashda muhim agrotexnik ahamiyatga ega.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

No'xat asosan qurg'oqchilikka chidamli ekin bo'lganligi uchun respublikamiz xo'jaliklarida faqat lalmikor hududlarda yetishtiriladi va bu yerlarda bahor oylarida yog'in-sochinlar kam bo'lganligi uchun no'xatdan har bir gektar hisobiga o'rtacha 3-5 sentner, ayrim qurg'oqchilik kelgan yillari, umuman hosil olib bo'lmasligi kuzatilmoqda. Shuning uchun respublikamizning lalmikor yerlarida keyingi yillarda no'xat ekini kam maydonlarda yetishtirilmoqda [1,3,4, 7,8]

No'xatning "Umid" navi SamDVMCHIU olimlari I.Xamdamov, G.Suvonova S.B.Mustanov, M.M.Djumayevlar tomonidan yaratilgan "O'zbekiston – 8" no'xat navi hamda O'zbekiston Donchilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari P.P.Oleynik Q.E.Eshmirzayevlar tomonidan yaratilgan no'xatning "VIR-3211" nav namunalari chatishtirib, yakka tanlash yo'li bilan yaratilgan.

Poyasi tik o'suvchi, bargi va poyasi ser tukli, bo'yi lalmi yerda 47-55 sm, sug'oriladigan yerlarda esa 80-100 sm, ostki dukkagining yer yuzasidan balandligi 40-45 sm. Guli oq, yirik bo'lib, barg qo'ltig'ida bittadan joylashgan. Urug'i och sarg'ish, oqish rangda, usti g'adir-budir, qaynatganda yaxshi pishadi. Urug'i ancha yirik, 1000 dona urug'ining og'irligi 300-340 grammgacha boradi. Askoxitoz kasalligiga chidamliligi o'rtacha. Bu nav qurg'oqchilikka chidamli bo'lib, dukkagi pishib yetilgach ochilib ketmaydi. O'suv davri 75-90 kunga boradi.

Tadqiqot Samarqand viloyati Toyloq tumani Bog'izog'on fermer xo'jaligining bo'z tuproqlari sharoitida o'tkazildi. Tajriba bir necha yillardan beri sug'oriladigan yerlarda ekib kelinayotgan «Umid» navi qator orasi 60 sm, urug'larni ekish meyorlari gektariga 60, 50, 40, 30 kg/ga variantlarda ekilib olib borildi

## **NATIJARLAR.**

Tajribada paykalning umumiy maydoni 12 m<sup>2</sup>, hisoblash maydoni 10 m<sup>2</sup>, takrorlar soni 3 ta, 4 xil variantda ya'ni urug'larni gektariga 60, 50, 40, 30 kg ekish meyorda ekildi. Har bir variantlarda sug'orishlar gektariga 700-800 m<sup>3</sup> suv sarfi hisobidan 3 marta ya'ni unib chiqish, g'unchalash va gullash davrlarida olib borildi.

Tajribada no'xatning o'sishi va rivojlanish borasidagi ko'rsatkichlari ekish meyorlariga hamda sug'orishga bog'liqligi aniqlandi.

O'simlik bo'yining balandligi ekish meyori gektariga 60 kg ekilgan variantda 88,6 sm ni, 50 kg/ga ekilganda 83,4 sm ni, 40 kg/ga ekilganda 80,7 sm ni, 30 kg/ga meyorda ekilgan variantda esa o'simlik bo'yining baladligi past bo'lishi kuzatildi va u 76,4 sm ni tashkil qildi. o'simlik bo'yining balandligini aniqlashda eng yuqori ko'rsatkich ekish meyori 60 kg/ga ekilgan variantda kuzatildi va 30 kg/ga meyorda ekilgan variantga nisbatan 12,1 sm baland bo'lganligi aniqlandi.

O'simlikni ostki dukkagining yerdan balandligi (ODEB) o'simlik bo'yining baladligiga bog'liq.[1.2.4]. Tajribalarimizda o'simlikning ostki dukkagining yerdan balandligi kuzatilganda ekish meyori gektariga 60 kg/ga variantida ekilganda 28,7 sm balandlikda joylashgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich 30 kg ekilgan variantda 22,3 sm ga teng bo'ldi.

## **MUHOKAMA.**

60 kg/ga meyorda ekilgan variantda o'simlik dukkaklarining yerdan baladligi 30 kg/ga ekilgan variantga nisbatan 6,4 sm yuqorida joylashganligi aniqlandi. O'simlikning bo'yi baland bo'lishi bilan ostki dukkagining yerdan balandligi xam mutonosib ravishda yuqori bo'lishi kuzatildi.

## **XULOSA.**

Xulosa qilib aytganda tajribalarimiz davomida Samarqand viloyatining bo'z tuproqli yerlarida erta bahorda tuproqning namgarchiligi yuqori muhitda no'xatning «Umid» navidan gektariga 700-800 m<sup>3</sup> suv sarfi hisobidan 3 marta sug'orib, ya'ni unib chiqish, g'unchalash va gullash davrlarida sug'orilganda ekish meyorini oshib borishi bilan o'simlik bo'yining balandligi, o'simlikdagi dukkaklar va dukkakdagi donlar soni qator orasi 60 sm, ekish meyori gektariga 30 kg urug' sarfi hisobidan ekish yuqori samara beradi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Мустанов Собир Болиевич, Сувонова Гўзал Асроровна, Бердимуродов Достонбек Худойкул ўғли / BIOLOGICAL NITROGEN/ India A Sian Journal of Multi dimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol 9, Issue 3, March, 04.2020. № 11
2. Elnura Iskandarovna Hamdamova, Guzal Asrorovna Suvonova, Ezozkhon Zokirovna Isokova. The Role of Legume Crops in Improving the Ecological State of the Soil. RA JOURNAL OF APPLIED RESEARCH. ISSN: 2394-6709 DOI:10.47191/rajar/v8i1.06. Volume: 08 Issue: 01 January-2022. Page no.- 21-23.
3. Elnura Hamdamova, Guzal Suvonova. The effect of planting methods on chickpea crop growth and yield elements. Jilin Daxue Xuebao (Gongxueban)/Journal of Jilin University (Engineering and Technology Edition) issn: 1671-5497e-publication: online open access vol: 41 issue: 11-2022 doi 10.17605/osf.io/yh3d6
4. З.Бобокулов. Турли экиш муддатлари ва чуқурликларда экилган нўхат навларининг ўсиш динамикаси. “Ёшларнинг инновацион фаоллигини ошириш, маънавиятини юксалтириш ва илм фан соҳасидаги ютуқлари” мавзусидаги Республика илмий-онлайн конференцияси материаллари тўплами.–Фарғона, 2020. 25 июл. –Б. 354-356.
5. Хамдамов И., Бобомурадов З., Сувонова Г., Джумаев М. Нўхат: ҳам озуқа, ҳам дори. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 2009. № 3. 18-б.
6. Хамдамов И., Мустанов С., Сувонова Г., Джумаев М. Нўхат шираси концентрациясига суғоришнинг таъсири. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 2009. №5. 18-б.
7. Ф. Б. Жабборов. /Суғориладиган ерларда нўхатнинг ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигига экиш схемасининг таъсири /Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals- CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1527-1535
8. Юлдашева З.К. Влияние способов, норм и сроков сева на урожайность нута в условиях поливных земель Ташкентской области. // Автореф. канд. дисс. на соиск. уч. ст. к.с.х.наук. Ташкент. 2001. 19 с.
9. Сувонова Г. А., Жабборов М. А., Хидирова Ў. С. НЎХАТ НАВЛАРИНИНГ ИЛДИЗ СИСТЕМАНИНГ РИВОЖЛАНИШИ //AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 879-881.